



## **FOREIGN EXPERIENCE IN TRAINING PUBLIC ADMINISTRATION PERSONNEL AND ITS APPLICATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**Saminjonov Mirmuxsin Mirxotam O'g'li**

1st-year Master's Student in Public Administration,  
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15044598>

### **ARTICLE INFO**

Received: 14<sup>th</sup> March 2025  
Accepted: 17<sup>th</sup> March 2025  
Online: 18<sup>th</sup> March 2025

#### **KEYWORDS**

*Public administration, management personnel, digital technologies, the United States, Europe, Asia, foreign experience.*

### **ABSTRACT**

*In today's globalization environment, it is important to study the experiences of advanced countries to improve the efficiency of the public administration system. The article studies the approaches of the United States, European and Asian countries to the training of public administration personnel and considers the possibilities of their application in the conditions of Uzbekistan. The possibilities of using foreign experiences in the conditions of the Republic of Uzbekistan are considered, and proposals are put forward to improve the skills of civil servants, combat corruption and increase the efficiency of the management system. Issues such as the introduction of an electronic government system, the use of digital technologies and the expansion of international experience exchange programs are covered. The conclusion identifies promising areas for improving the public administration system of Uzbekistan.*

## **DAVLAT BOSHQARUVI KADRLARINI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBASI VA UNDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FOYDALANISH MASALALARI**

**Saminjonov Mirmuxsin Mirxotam O'gli**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Davlat boshqaruvi mutaxassisligi 1-bosqich magistranti  
mirmuhsinsaminjonov@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15044598>

### **ARTICLE INFO**

Received: 14<sup>th</sup> March 2025  
Accepted: 17<sup>th</sup> March 2025  
Online: 18<sup>th</sup> March 2025

#### **KEYWORDS**

*Davlat boshqaruvi, boshqaruv kadrlari, raqamlı texnologiyalar, AQSH, Yevropa, Osiyo, xorijiy tajriba.*

### **ABSTRACT**

*Bugungi globallashuv sharoitida davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish uchun ilg'or mamlakatlarning tajribalarini o'rGANISH muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlarning davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlashdagi yondashuvlari o'rganilib, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi sharoitida xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilib,*



*davlat xizmatchilarining malakasini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Elektron hukumat tizimini joriy qilish, raqamlı texnologiyalardan foydalanish va xalqaro tajriba almashinuv dasturlarini kengaytirish kabi masalalar yoritilgan. Xulosa qismida esa O'zbekistonning davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar belgilangan.*

### **Kirish**

Bugungi globallashuv jarayonida davlat boshqaruvi tizimining doimiy ravishda modernizatsiya qilinishi va xalqaro tajribalardan foydalaniishi dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar o'zining davlat xizmati tizimini takomillashtirishda turli innovatsion yondashuvlarni joriy etmoqda. Xususan, davlat boshqaruvi kadrlari uchun maxsus tayyorlov dasturlarini yo'lga qo'yish, amaliy bilimlarni oshirishga qaratilgan ta'lim tizimini shakllantirish va samarali boshqaruv usullaridan foydalanish keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish jarayonida xorijiy tajribadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat xizmati va boshqaruvi sohasida kadrlar tayyorlash tizimi bosqichma-bosqich rivojlantirilib, ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida yangilanmoqda. Ayniqsa, davlat xizmatchilari uchun maxsus o'quv dasturlarini takomillashtirish, malaka oshirish kurslarini joriy etish va innovatsion boshqaruvi texnologiyalarini tatbiq etish jarayoni jadallahsgan. Bu jarayonda rivojlangan mamlakatlarning davlat boshqaruvi tizimlari tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash bo'yicha yetakchi tajribaga ega. Masalan, AQShda davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash bo'yicha maxsus universitetlar va ilmiy markazlar faoliyat olib boradi. Xususan, Harvard universitetining Kennedy nomidagi davlat boshqaruvi maktabi, Princeton universitetining jamoatchilik siyosati maktabi davlat boshqaruvi sohasidagi eng ilg'or ta'lim muassasalaridan hisoblanadi. Ushbu maktablarda davlat xizmatchilarini tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy tajribaga ham katta e'tibor qaratiladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash tizimi davlat akademiyalari va maxsus institutlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, Germaniyada Federal ma'muriy akademiyasi (BAKÖV) davlat boshqaruvi sohasida professional kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan. Buyuk Britaniyada esa davlat xizmatchilari uchun maxsus dasturlar joriy etilib, ular orqali boshqaruvi tizimining samaradorligi oshiriladi.

Osiyo mamlakatlari tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Singapur va Janubiy Koreya davlat boshqaruvi sohasida ilg'or yondashuvlarni tatbiq etgan yetakchi davlatlardan hisoblanadi. Singapurda Lee Kuan Yew nomidagi Davlat siyosati maktabi davlat xizmatchilarini strategik rejorashtirish va innovatsion texnologiyalar asosida boshqaruvi tizimini tashkil etish bo'yicha tayyorlaydi. Janubiy Koreyada esa davlat xizmatchilarini tayyorlashda raqamlı texnologiyalar va zamonaviy boshqaruvi usullari keng qo'llaniladi.



O'zbekiston Respublikasi ham davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va kadrlar tayyorlash jarayonida xorijiy tajribadan keng foydalanmoqda. Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida xalqaro tajribalar asosida maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda. Davlat xizmatchilari malakasini oshirish maqsadida xorijiy mamlakatlarda amaliyot o'tash imkoniyatlari kengaytirilib, innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda. Bundan tashqari, davlat xizmatini yanada samarali tashkil etish va shaffof boshqaruv tizimini shakllantirish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Quyida davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.**

**AQShda** davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash jarayoni yuqori sifat va samaradorlik bilan ajralib turadi. Mazkur jarayon asosan yetakchi universitetlar va ilmiy markazlar orqali amalga oshiriladi. Xususan, Garvard universitetining Kennedi nomidagi davlat boshqaruvi maktabi, Princeton universitetining jamoatchilik siyosati maktabi va Stanford universitetining davlat boshqaruvi dasturlari AQSh davlat xizmatchilarini tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Garvard universitetining Kennedi maktabi davlat xizmatchilari uchun maxsus dasturlar ishlab chiqadi. Ushbu dasturlar jamoatchilik boshqaruvi, strategik menejment, siyosat tahlili, budgetlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish kabi yo'naliishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maktabda o'qitish jarayoni nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish orqali olib boriladi.

Princeton universitetining jamoatchilik siyosati maktabi esa davlat boshqaruvi sohasida yetuk mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan. Bu maktabda ta'lif olgan kadrlar davlat siyosatini shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy tahlillarni o'tkazish va strategik rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. AQShda davlat boshqaruvi sohasidagi ta'lif dasturlari davlat xizmatida samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yishga yordam beradi.

Bundan tashqari, AQSh federal va mahalliy boshqaruv darajasida ham maxsus dasturlar orqali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirib kelmoqda. Masalan, AQSh Davlat xizmati akademiyasi (Federal Executive Institute) yuqori martabali davlat xizmatchilarini uchun malaka oshirish kurslarini taqdim etadi. Ushbu akademiya rahbar kadrlarni zamonaviy boshqaruv usullari, innovatsion texnologiyalar va strategik qaror qabul qilish bo'yicha tayyorlaydi.

Shuningdek, AQShning davlat boshqaruvi tizimida malaka oshirish dasturlari ham katta o'rin tutadi. Federal hukumat agentliklari o'z xodimlari uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etadi. Bunday kurslarda davlat xizmatchilarini boshqaruv texnologiyalarini o'rGANIB, zamonaviy menejment tamoyillariga moslashadilar. Masalan, AQShning Oliy davlat boshqaruvi maktabi (National School of Public Administration) turli darajadagi davlat xizmatchilarini uchun maxsus dasturlar ishlab chiqadi.

Yevropa davlatlari, xususan, Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash borasida o'ziga xos va samarali tizimlarga ega. Ushbu mamlakatlarda davlat xizmatchilari uchun maxsus akademiyalar, ilmiy markazlar va universitet dasturlari orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlanadi.

**Germaniyada** davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlashda Federal ma'muriy akademiya (BAKÖV) muhim rol o'ynaydi. Ushbu akademiya davlat xizmatchilarining malakasini oshirish va ularni zamonaviy boshqaruv usullari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan. Germaniya davlat boshqaruvi tizimi kuchli huquqiy asoslar va samarali boshqaruv tamoyillariga tayanadi. Bu



mamlakatda davlat xizmatchilari uchun amaliyat va ta'lif dasturlarining uzlusizligi ta'minlangan.

**Buyuk Britaniyada** davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash uchun maxsus davlat institutlari mavjud. Xususan, Buyuk Britaniya Davlat xizmati kolleji (Civil Service College) davlat xizmatchilari uchun zamonaviy menejment, strategik rejalashtirish va siyosiy tahlil bo'yicha kurslar tashkil qiladi. Ushbu tizim davlat xizmatchilarining professional malakasini oshirish va ularni zamonaviy boshqaruv tamoyillariga moslashtirishga yo'naltirilgan.

Buyuk Britaniya davlat xizmatchilari tayyorlash tizimida mentorlik va murabbiylit dasturlariga katta e'tibor qaratiladi. Har bir davlat xizmatchisi tajribali rahbarlar va mutaxassislar bilan bevosita ishlash imkoniyatiga ega bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda o'z malakasini oshiradi.

**Fransiyada** davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlashda Milliy ma'muriy boshqaruv maktabi (École Nationale d'Administration – ENA) yetakchi o'rinn tutadi. ENA mamlakatning eng nufuzli davlat boshqaruvi institutlaridan biri bo'lib, yuqori martabali davlat xizmatchilarini tayyorlashga ixtisoslashgan. Ushbu maktabda tahsil olgan shaxslar keyinchalik yuqori lavozimlarga tayinlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Yevropa Ittifoqi davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash bo'yicha yagona tizimga ega emas, biroq Yevropa Ittifoqi institutlari orqali ko'plab dasturlar va kurslar tashkil etiladi. Masalan, Yevropa Boshqaruv va Ma'muriyat instituti (European Institute of Public Administration - EIPA) davlat xizmatchilari uchun turli sohalarda malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu dasturlar davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, strategik rejalashtirish va siyosiy boshqaruv sohalariga qaratilgan. Umuman olganda, Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlashda maxsus akademiyalar, uzlusiz ta'lif tizimi va amaliy tajriba almashinuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida ham Yevropa mamlakatlarining ilg'or tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Osiyo mamlakatlari davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash borasida o'ziga xos model va yondashuvlarga ega. Ayniqsa, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi mamlakatlarning tajribasi alohida e'tiborga loyiqidir.

**Yaponiyada** davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish Milliy Hizmati Kadrlar Kengashi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Mamlakatda davlat xizmatchilari uch darajali ta'lif tizimidan o'tishadi: boshlang'ich tayyorgarlik, mutaxassislik kurslari va oliy boshqaruv darajasi. Yaponiyada davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash jarayonida amaliyotga katta e'tibor qaratiladi. Xodimlar davlat boshqaruvi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va tahlillar bilan shug'ullanadi, shuningdek, tajriba almashish uchun xorijiy dasturlarda qatnashadi.

**Janubiy Koreyada** davlat xizmatchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish Milliy Davlat Boshqaruv Akademiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Bu akademiya davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni zamonaviy boshqaruv texnologiyalari bilan tanishtirish va davlat xizmatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Janubiy Koreya davlat xizmati tizimida innovatsion yondashuv va elektron hukumat texnologiyalari keng joriy etilgan. Davlat xizmatchilari raqamli boshqaruv usullarini o'rganish bilan birga, strategik rejalashtirish va innovatsion siyosat yuritish ko'nikmalarini ham egallaydi.



**Xitoyda** davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlashda Markaziy partiya maktablari va Davlat Boshqaruvi Akademiyalari muhim rol o'ynaydi. Xitoyda davlat xizmatchilar uch bosqichli tayyorgarlik tizimidan o'tadi: mahalliy, viloyat va milliy darajadagi o'quv kurslari. Davlat boshqaruvi tizimi marksistik boshqaruv tamoyillariga asoslangan bo'lsa-da, unda zamonaviy menejment texnologiyalari ham faol joriy etilmoqda. Xitoy davlat xizmatchilar qat'iy tanlov asosida saralanadi va malaka oshirish kurslaridan doimiy ravishda o'tib turadi.

Osiyo davlatlarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlashda amaliy ko'nikmalar, uzlusiz o'qitish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash jarayonida zamonaviy texnologiyalar, ilmiytadqiqotlar va amaliyatga katta e'tibor qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu tajribalardan foydalangan holda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga harakat qilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilishda AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribasidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat xizmatining samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini rivojlantirish orqali mamlakatimizda yanada mustahkam boshqaruv tizimi shakllantirilishi mumkin.

**Birinchidan,** O'zbekistonda davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun AQSh va Yevropa mamlakatlaridagi kabi maxsus davlat boshqaruvi akademiyalarini kengaytirish va innovatsion ta'lif metodlarini joriy etish lozim. Xususan, amaliy o'qitish usullarini ko'paytirish, davlat xizmatchilarining tahliliy va strategik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur.

**Ikkinchidan,** davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish muhim hisoblanadi. Janubiy Koreya va Estoniya kabi davlatlarning elektron hukumat tajribasi O'zbekistonda ham qo'llanilishi lozim. Elektron boshqaruv tizimlarini rivojlantirish orqali davlat xizmatchilarining samaradorligini oshirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish mumkin.

**Uchinchidan,** davlat xizmatchilar uchun xalqaro amaliyot dasturlarini kengaytirish va ularni xorijiy davlatlarga malaka oshirish uchun yuborish tizimini takomillashtirish lozim. Xitoy va Yaponiya tajribalaridan kelib chiqib, davlat xizmatchilarining xorijiy o'quv dasturlarida ishtiroy etishi ularning professional mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

**To'rtinchidan,** davlat boshqaruvi sohasida kadrlar tanlovini oshirish va ularni sifatli saralash tizimini joriy etish lozim. AQShning Meros tizimi yoki Buyuk Britaniyaning davlat xizmatchilarini tanlash usullari asosida raqobatbardosh tanlov tizimini yaratish muhim. Bu jarayonda meritokratiya tamoyiliga tayanish va eng malakali mutaxassislarni davlat boshqaruviga jalb etish kerak.

**Beshinchidan,** davlat xizmatchilarining kasbiy rivojlanishi uchun uzlusiz ta'lif tizimini joriy qilish zarur. Yevropa mamlakatlaridagi kabi, davlat xizmatchilarining malakasini oshirishga yo'naltirilgan maxsus kurslarni kengaytirish va ularning doimiy kasbiy rivojlanishini ta'minlash talab etiladi. Bu jarayonda zamonaviy boshqaruv metodlari, liderlik qobiliyatları va inqirozga qarshi choralar ko'rish bo'yicha o'quv dasturlarini joriy etish lozim.



**Oltinchidan**, davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish va shaffoflikni oshirish bo'yicha xalqaro tajribadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Singapur va Skandinaviya davlatlarining korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalari O'zbekiston uchun muhim model bo'lib xizmat qilishi mumkin. Davlat xizmatchilarining javobgarlik tizimini kuchaytirish, ularga beriladigan imtiyozlar va ish haqlarini oshirish orqali korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish mumkin.

**Yettinchidan**, mahalliy davlat boshqaruvi organlarining mustaqilligini oshirish va ularning samaradorligini ta'minlash bo'yicha Yevropa Ittifoqi davlatlarining tajribasidan foydalanish muhimdir. Bu jarayonda mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va hududiy rivojlanishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishda xorij tajribasidan foydalanish jarayoni uzoq muddatli strategik maqsadlar asosida olib borilishi lozim. Xalqaro tajribalar va milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish va zamonaviy tendensiyalar asosida rivojlantirish mamlakatning umumiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Davlat boshqaruvi tizimini samarali shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunda har bir davlat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi ham davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish va kadrlar tayyorlash jarayonida rivojlangan davlatlar tajribasidan samarali foydalanish yo'lida izlanishlar olib bormoqda. Xususan, AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlarining ilg'or tajribalari mamlakatimizda davlat xizmati tizimini takomillashtirishda muhim o'r'in tutmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, samarali boshqaruv tizimini yaratish uchun davlat xizmatchilarini yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari talab etiladi. Bu jarayonda maxsus ta'lim muassasalari va o'quv dasturlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda davlat boshqaruvi akademiyalarini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim metodlarini joriy qilish orqali davlat xizmatchilarining malakasini oshirish mumkin. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni davlat boshqaruviga joriy etish ham muhim vazifalardan biridir. Elektron hukumat tizimini rivojlantirish orqali nafaqat boshqaruv jarayonlarini avtomillashtirish, balki shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi samarali kurashish mumkin. Bu borada Estoniya va Janubiy Koreya tajribalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, davlat xizmatchilari uchun xalqaro tajriba almashinuv dasturlarini kengaytirish va xorijiy davlatlarga malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish orqali boshqaruv tizimi sifatini oshirish mumkin. Xitoy, Yaponiya va Yevropa mamlakatlarida malaka oshirish dasturlari davlat xizmatchilarini uchun katta foya keltiradi. Ular zamonaviy menejment va strategik boshqaruv bo'yicha ilg'or bilimlarga ega bo'lishadi. Davlat xizmatiga kadrlar saralash tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. AQSh va Buyuk Britaniyada mavjud bo'lgan meritokratiya tamoyillari asosida davlat xizmatchilarini tanlash tizimini joriy etish O'zbekistonda boshqaruv tizimining samaradorligini oshiradi. Raqobatbardosh tanlov tizimini yaratish orqali eng munosib nomzodlarni davlat boshqaruviga jaib qilish mumkin. Davlat boshqaruvi tizimining rivojlanishida korrupsiyaga qarshi kurash va shaffoflikni oshirish ham katta rol o'ynaydi. Singapur va Skandinaviya mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurash



strategiyalaridan foydalanish orqali O‘zbekiston davlat xizmatchilari o‘rtasida halollik va shaffoflik madaniyatini shakllantirish mumkin. Korrupsianing oldini olish uchun davlat xizmatchilari uchun qulay ish sharoitlarini yaratish va ularning maoshlari oshirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish uchun xorijiy tajribalarni puxta o‘rganib, ularni milliy sharoitlarga moslashtirib joriy etishi lozim. Davlat xizmatchilarini tayyorlash va malakasini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, korrupsiyaga qarshi kurash hamda mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish kabi chora-tadbirlar orqali davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Xalqaro tajribalar va milliy xususiyatlarni uyg‘unlashtirish orqali O‘zbekiston kelajakda yanada mustahkam, innovatsion va samarali davlat boshqaruvi tizimiga ega bo‘lishi mumkin.

### **Iqtiboslar/Snoski/References:**

1. Abdulkarimov, B. (2022). *O‘zbekistonda davlat boshqaruvi islohotlari: yutuqlar va istiqbollar*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. (2023). *Davlat xizmatchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlari*.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari. (2022-2023). *Davlat boshqaruvi sohasida islohotlar*.
4. Bouckaert, G., Halligan, J. (2008). *Managing Performance: International Comparisons*. Routledge.
5. China National School of Administration. (2020). *Public Administration Training in China*.
6. Christensen, T., Lægreid, P. (2018). *Administrative Reforms: International Comparison*. Routledge.
7. Denhardt, J. V., Denhardt, R. B. (2000). *The New Public Service: Serving, Not Steering*. M.E. Sharpe.
8. European Commission. (2020). *Public Administration Reform in the EU*. European Union Publications.
9. Frederickson, H. G., Smith, K. B., Larimer, C. W., Licari, M. J. (2018). *The Public Administration Theory Primer*. Routledge.
10. Hood, C. (1991). *A Public Management for All Seasons?* Public Administration, 69(1), 3-19.
11. Jahon banki. (2021). *Public Sector Modernization in Uzbekistan*.
12. Kim, P. S. (2010). *Public Administration and Public Governance in Asia*. Routledge.
13. Lodge, M., Wegrich, K. (2012). *Managing Regulation: Regulatory Analysis, Politics and Policy*. Palgrave Macmillan.
14. Lynn, L. E. (2006). *Public Management: Old and New*. Routledge.
15. OECD. (2018). *Government at a Glance*. OECD Publishing.
16. Osborne, D., Gaebler, T. (1992). *Reinventing Government: How the Entrepreneurial Spirit is Transforming the Public Sector*. Addison-Wesley.
17. Peters, B. G., Pierre, J. (2017). *The Handbook of Public Administration*. SAGE Publications.
18. Pollitt, C., Bouckaert, G. (2011). *Public Management Reform: A Comparative Analysis - New Public Management, Governance, and the Neo-Weberian State*. Oxford University Press.



# EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES

Innovative Academy Research Support Center

IF = 7.984

[www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz)

19. Singapore Civil Service College. (2022). *Developing Future-Ready Public Servants*.
20. South Korea Ministry of Personnel Management. (2021). *Public Administration Training in South Korea*.
21. Transparency International. (2023). *Corruption Perceptions Index*.
22. United Nations Development Programme (UNDP). (2021). *Public Sector Reform and Capacity Development*.
23. Gavkharkhon, M. (2024). CONDUCTING ELECTIONS TO THE PARLIAMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: ACTIVITIES OF THE CENTRAL ELECTORAL COMMISSION AND MODERN MECHANISMS FOR ENSURING LEGITIMACY. *International Journal Of History And Political Sciences*, 4(11), 7-9.
24. Rakhimjonov, A., & Imomov, N. F. (2021). Improving the creation of a land information base for the privatization of land plots in the republic of Uzbekistan and foreign experience in this area.“. *The American journal of social science and education innovations*, 160-165.